

**TARJIMA JARAYONIDA DUCH KELADIGAN SO'Z
SHAKLLARI ALMASHINUVI**

Toshtemirova Aziza Farxot qizi
Termiz Davlat Universiteti
azizatoshtemirova354@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida yuz beradigan so'z shakllarining almashinuvi haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, maqolada so'z turkumlarining almashtiruvchi hamda tarjima jarayonida gaplardagi so'zlarning o'rin almashuvlari haqida ham gapirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ko'plik qo'shimchasi, to'ldiruvchi, ega, aniqlovchi, ibora, bog'lovchili gap, so'roq olmoshi, kesim, sifatdosh.

KIRISH QISM

Tarjima jarayonida biror bir asarni yoki matnni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonida bir qancha muammolarga duch kelinadi. Xususan, asliyat tilida qo'llanilgan ko'plik va boshqa shakl yasovchi qo'shimchalar o'zgarishlarga uchraydi. Bundan tashqari gap ma'nosini to'g'ri talqin qilish va g'aliz bo'lib qolishini oldini olish uchun so'z turkumlari doirasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bu haqida quyida bir nechta misollar bilan izohlab o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqola Colleen Hooverning "It starts with us" asarining tarjimasini jarayonida yuzaga keladigan so'z shakllari almashinuvi mavzusida tahlil olib boriladi va bu maqola qiyosiy metoddan foydalanib yozildi.

NATIJALAR

Tarjima jarayonida duch kelgan ko'plab so'z shakllari almashinuvi, so'z turkumlarining almashtiruvchi va so'z o'rnini almashinuvi mavzusiga doir muammolarga yechim topildi, hamda quyida bu haqida muhokama qilinib, misollar tariqasida yoritildi.

MUHOKAMA

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarjima jarayonida gaplar va so'zlar orasida yuz beradigan o'zgarishlarni izohlashni boshlaymiz. Masalan, ingliz tilida so'zlarga qo'shiladigan ko'plik qo'shimchasi ayrim holatlarda o'zbek tiliga ko'plik qo'shimchasisiz tarjima qilinadi. Misol uchun: "I touch the paint, but does not stick my fingers" gapi o'zbek tiliga "Bo'yoqqa qo'l tekkizdim, ammo barmog'imga yopishmadi" tarzida tarjima qilinadi. Gapdagi "fingers" so'zi tarjima tiliga "barmoq" bo'lib o'giriladi, ya'ni ushbu so'zdagi ko'plik qo'shimchasi tarjima tilida ifodalanmaydi. Ammo ayrim holatlarda esa asliyat tilida kelgan birlikdagi so'z tarjima

tiliga ko'plik tarzida tarjima qilinadi. Ya'ni: "Darin uses his jacket to pry a large shard of exploded broken glass out of the window" gapidagi "glass" so'zi ikkinchi tilga "Derin jaketini derazadan singan oyna parchalarini olib tashlash uchun ishlatdi" ya'ni "oyna parchalari" tarzida tarjima qilindi. "Glass" so'zi ingliz tilida sanalmaydiga ot bo'lsada, u o'zbek tilida sanaladigan ot hisoblangani uchun ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan holda tarjima qilinadi. Bundan tashqari tarjima jarayonida gaplardagi so'zlar o'rtasida o'rin almashishi ham kuzatiladi. Masalan, "Had to be a kid" gapi o'zbek tiliga "Yosh bola bo'lishi kerak" deb tarjima qilinadi va ingliz tilidagi to'ldiruvchi tarjima jarayonida ega o'rniga ya'ni gap boshiga o'tadi. "It is your restaurant" gapida esa aniqlovchi gap oxiriga o'tadi va "Bu restaran sizniki" tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda aniqlovchi "your" – "sizniki" hisoblanadi. So'z turkumlari almashinuvi haqida so'z yuritiladigan bo'lsa, bunga misol tariqasida "It was hard to find the humor in it as a child when I was always the recipient of the hurled insult" gapini keltiradigan bo'lsak, bunda asliyat tilida ot so'z turkumi vazifasi kelgan "recipient" so'zi tarjima tiliga fe'l so'z turkumi sifatida tarjima qilinadi, ya'ni "qarata otilganda". Gap umumiy qilib, "Bolaligimda haqoratlar menga qarata otilganda undan xazil topish qiyin edi" deb tarjima qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjimon asliyat tilidagi asar yoki matnni ma'nosini to'g'ri chiqarib berish va ma'nodagi g'alizlikni oldini olish uchun tarjima jarayonida ayrim qo'shimchilarni qo'shishi, tushurib qoldirishi, so'z turkumlarining o'rnini o'zgartirishi va joiz bo'lganda so'z yoki ibora ham qo'shishi mumkin. Nima bo'lgan taqdirda ham tarjimon o'quvchiga axborotni to'liq va to'g'ri ma'noda yetkazib berishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. C. Hoover, *It starts with us*, Simon & Schuster: UK, 2022
2. Oxford University, *Oxford Dictionary of Current English*. – USA: Oxford University press, 2006.
3. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43.
4. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
5. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 73-76.
6. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and Researches*, (8(30)).

ИЗВЛЕЧЕНО

OT

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>

7. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
8. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
9. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
10. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.